


G`AFUR G`ULOMNING “SOG`INISH” SHE’RIDAGI OTA SOG`INCHI



Eshboyev Sharafiddin

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 3-bosqich talabasi

Email: eshboyevsharafiddin01@gmail.com

Annotatsiya: Sog`inch tuyg`usi bu eng ko`p azob beradigan tuyg`ulardan biridir va u insonlarni judayam qattiq qiynaydi. Ushbu maqolada esa G`afur G`ulomning “Sog`inish” she’ridagi ota sog`inchi tasvirlangan va o`g`lini urushga yuborgan otalarning ichki kechinmalari yoritilgan.

Kalit so`zlar: urush, hayot, sog`inch, g`alaba, farzand

Abstract: The feeling of longing is one of the most painful feelings and it hurts people very much. This article describes the longing father in Gafur Ghulam's poem "Missing" and highlights the inner experiences of fathers who sent their sons to war.

Key words: war, life, longing, victory, child

Аннотация: Чувство тоски – одно из самых болезненных чувств и оно очень ранит человека. В данной статье описывается тоскующий отец в стихотворении Гафура Гулама «Пропавший без вести» и освещаются внутренние переживания отцов, отправивших своих сыновей на войну.

Ключевые слова: война, жизнь, тоска, победа, ребенок.

G`afur G`ulomni o`zbek she’riyatining otasi desak ham bo`laveradi, sababi G`afur G`ulomning she’rlarida judayam katta ma’no mavjud va uning she’rlarini diqqat bilan o`qimasa ma’nosiga tushunish qiyin. Uning eng mashhur she’rlaridan biri hisoblangan “Sog`inish” she’rida ham olam-olam ma’no mujassam. Ushbu she’rning yozilish tarixiga kelsak, “Sog`inish” she’ri 1942-yilda yozilgan. Aynan o`sha paytda Ikkinci jahon urushining qizg`in pallasi edi. Shuning uchun urushga ko`plab erkaklar – kimningdir otasi, kimningdir o`g`li, yana kimningdir umr yo`ldoshi yuborilgan. G`afut G`ulomning “Sog`inish” she’ri aynan otaning o`z farzandiga bo`lgan kuchli sog`inchini ifoda etgan. Ota degan zot bu doim o`z farzandi haqida qayg`uruvchi, farzandi uchun hamma narsaga tayyor turgan odamdir. Ota-onamiz bizni katta qilish jarayonida juda ko`p qiyinchiliklarga duch keladi va ba’zan o`z farzandlarini koyishiga ham to`g`ri keladi. Lekin baribir ota-onaning ichida o`z farzadlariga bo`lgan ko`rinmas mehri doimo mavjud bo`ladi. Ushbu she’rda aynan otaning o`z o`g`liga bo`lgan kuchli mehri tasvirlangan.

“Sog`inish” she’riy asarida esa urushga ketgan o`g`lidan qandaydir yaxshi xabar kutayotgan ota tasvirlangan. Ushbu she’r judayam ta’sirli yozilgan va she’rning birinchi jumlalariga e’tiborimizni qaratsak,

*Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek,
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O'zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh,*

Ushbu jumlalarda ota sog`inchi shunchalar kuchliki, hatto u har narsadan umidvor bo`lib, o`z o`g`lidan xabar kutadi. Hatto u majoziy ma'noda quyoshdan yordam so`raydi, sababi u quyoshni eng kichik zarradan Yupitergacha hukmdorsan deb. Ushbu jumlalarni tushunishimiz uchun o`z o`g`lini urushga yuborgan ota o`rnida o`zimizni tasavvur qilib ko`rishimiz yoki shunday jarayonni o`z boshimizdan o`tkazib ko`rishimiz kerak.

*Kechqurun osh suzsak bir nasiba kam,
Qo'msayman birovni – allakimimni.
Doimo umidim bardam bo'lsa ham,
Ba'zan vasvasalar bosar dilimni.*

Ushbu jumlalardan shuni anglash mumkinki, ota doim o`z o`gli urushdan g`olib, muzaffar kelishiga ishonchi komil bo`lsa ham, ba'zan uning qalbini vasvasalar bosar va o`g`lidan tashvishga tushardi. Undan keying satrlarda esa u o`ziga taskin berish uchun va o`g`li hayot ekanligiga o`zini ishontirish uchun quyidagi jumlalarni yozadi:

*Balki bir g'alat o'q, yo xavf-u xatar
Xazinai umrimdan yo'qotdi olmos...
Yo'q, u o'lmas, qadami olam yaratar,
Hayotiy bu olam siz-u bizga xos.*

“Sog`inish” she’rida ota o`ziga taskin berib, loyqa xayolotlarni tindirish uchun Bedil o`qiganini ham aytib o`tadi. Bedil bu Boburiylar davrida yashab o`tgan taniqli o`zbek mutafakkiri. Uning asarlari 19-asrda O`rta Osiyoda judayam keng tarqalgan va uning asarlari falsafiy fikrga boy bo`lganligi uchun, u Turkistonda “Ma’nolar otasi” deb atalgan. Ya’ni Bedil asarlarida falsafiy fikrlarning yuqoriligi sababli, uning asarlari odamlarni yanada yuqoriroq va sog`lom fikrlashga undaydi. She’rda tasvirlangan ota ham Bedilni o`qish orqali o`z hissiyotlarini boshqara oladi va ko`ngli joyiga tushadi.

Shoirning she’ridagi ushbu jumlalariga e’tibor qaratamiz:

*Sizlarni, keldi, deb eshitgan kuni
O'zing to'qib ketgan katta savatda,
To'latib shaftoli uzib chiqaman,
G'alaba kunlari yaqin albatta.*

“Sog`inish” she’rining yozilish vaqtiga e’tibor qaratadigan bo`lsak, yuqorida aytganimizdek ushbu she’r 1942-yilda yozilgan ya’ni urush tugashiga hali 3 yil vaqt bor. Ota esa o`z o`g`li g`alaba bilan kelishini va g`alaba yaqin ekanini qalban his etadi, shuningdek, unga o`zi to`qigan savatni shaftoli bilan to`la qilib olib chiqishini aytadi. Shuningdek, she’rda o`g`lining sevgan qizi haqida ham so`z yuritiladi. O`g`lining

sevgan qizi ham hali hanuz o`z sevgilisini kutayotganini aytib o`tadi va bog`aro sayr qilishlarini eslab o`tadi. Otasining yagona istagi bu o`g`lining sog`-omon bo`lib qaytishi va otameros bog`ini o`zi parvarish qilishini istaydi.

Har bir ota o`z farzandini ko`z qorachig`iday asrashga harakat qiladi. Hech bir inson o`z farzandiga yomonlikni ravo ko`rmaydi va unga eng yaxshi tilaklarni tilaydi. G`afur G`ulom ham ushbu she'r orqali butun O'zbekistondagi ota-onalarning ichki-hissiyotlarini, ularning ichidagi kechinmalarini she'r shaklida tasvirlaydi. Ularning o`g`illari urushga ketganligi sababli ular nimalarni his qilayotgani va ularni ham sog`inch azobi qiyinayotganini tasvirlagan. Urush degan zot bu ko`pchilikning yostig`ini quritgan eng yovuz narsadir. G`afur G`ulomning ushbu she'ri 1943-yilda yozilgan bo`lsada, she'rda g`alaba qilishimizga ishonchi komil bo`lgan va haqiqatda ikkinchi jahon urushida biz g`alaba qozonganmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003.
2. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. O'n ikki tomlik. 1-tom. T.: Fan, 1983.
3. G'afur G'ulom xotiralarda: to'plam/ Nashrga tayyorlovchilar : N.Ramazonov, L.Ilhomjonov. O'zR Adliya vazirligi, TDYU.-Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021.
4. Manba <https://tafakkur.net/sog`inish/gafur-gulom.uz>